

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH TEXNOLOGIYALARI  
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI  
BERUVCHI PHD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH TEXNOLOGIYALARI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**SHAKIROV NOMANJON**

**ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA IKKILAMCHI RESURS CHIQUINDILARNI  
BOSHQARISHNING ILMIY ASOSLARI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Shakirov Nomanjon**

Atrof-muhitni muhofaza qilishda ikkilamchi resurs chiqindilarni boshqarishning  
ilmiy asoslari ..... 3

**Шакиров Номанжон**

Научные основы управления вторичными ресурсными отходами в охране  
окружающей среды ..... 22

**Shakirov Nomanjon**

Scientific foundations of secondary resource waste management in environmental  
protection..... 42

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH TEXNOLOGIYALARI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI  
BERUVCHI PHD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH TEXNOLOGIYALARI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**SHAKIROV NOMANJON**

**ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA IKKILAMCHI RESURS CHIQINDILARNI  
BOSHQARISHNING ILMIY ASOSLARI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Gr296 raqami bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertasiya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb sahifada ([www.ecoilm.uz](http://www.ecoilm.uz)) manzili bo'yicha va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Aminov Xamza Xusanovich**  
texnika fanlari falsafa doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Turaboev Akmal Normo'minovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Xankelov Tavbay Qarshievich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajasini beruvchi PhD.18/30.11.2022.T.153.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «18» 07 da soat 5<sup>00</sup> da majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti (Green University) huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz)).

Dissertasiya bilan Atrof-muhitni va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 3 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti (Green University) huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz)).

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «02» 07 kuni tarqatildi.

(2025 yil «02» 07 dagi \_\_\_\_\_ raqamli resstr bayonnomasi).



**B.A.Pulatov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., dosent

**L.N.Samiyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashi kotibi, t.f.d., dosent

**Sh.O.Murodov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qurilish chiqindilari hosil bo'lishi sabablari va ularni tashish, qayta ishlashda ekologik nuqtai nazardan resurs tejamonkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida 2.5 milliard tonnani, jumladan Yevropada 200 million tonna qurilish chiqindisi hosil bo'ladi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, ekologik muammolarga kengroq e'tibor qaratishni taqozo etadi. Shu jihatdan qurilish chiqindilarini qayta ishlash va ularni utilizatsiya qilish texnologiyalarini ishlab chiqishda ilmiy ekologik nuqtai nazardan samarali texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda dasturiy ta'minotlardan foydalanib, qurilish chiqindi poligonlari uchun ajratilgan yerlarni boshqarish maqsadida geoaxborot ma'lumotlar bazasini avtomatlashtirish va uni modullashtirish tizimida yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jihatdan chiqindi poligonlari yerlaridan foydalanishda nazoratni o'rnatish, geoma'lumotlar bazasi orqali chiqindi poligonlari yerlari hisobini yuritish, ular to'g'risidagi axborotlar tizimini shakllantirish va poligonlarni joylashtirishni avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada, chiqindi poligonlarini joylashtirish uchun yer tanlashda zamonaviy usullarni qo'llagan holda geoma'lumotlar bazasida chiqindi poligonlarining mavzuli qatlamlarini shakllantirish va geovizuallashtirish, geoaxborot tizimini qo'llash asosida chiqindi poligonlarini maqbul joylashtirishning takomillashtirilgan va kompleks ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilish chiqindilari bilan bog'liq jarayonlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish, qurilish chiqindilarini to'plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va ko'mish kabi jarayonlarning tamoyillarini yaratish, chiqindi poligonlarini loyihalash va ulardan foydalanish tizimini avtomatlashtirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2019-2028-yillar davrida O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»<sup>1</sup> qarori, jumladan, «... aholining qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlashga yo'naltirilgan sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish, poligonlarga ko'mish uchun yo'naltiriladigan qattiq maishiy chiqindilar hajmini kamaytirish, sanitariya va ekologik me'yorlar talablariga muvofiq keladigan zamonaviy qattiq maishiy chiqindi poligonlarini yaratish, shuningdek, mavjud poligonlarni yopish va rekultivatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish...»<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, qurilish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 apreldagi PQ-4291-son qarori.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

chiqindilari bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish, qurilish chiqindilarini to‘plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va ko‘mish kabi jarayonlarning tamoyillarini yaratish, chiqindi poligonlarini loyihalash va ulardan foydalanish tizimini avtomatlashtirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291-son “2019-2028 yillar davrida O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, hamda 2018-yil 2-oktyabrdagi 787-son “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Qurilish chiqindilarini boshqarish, logistika, ularning atrof-muhitga, tabiiy resurslarga ta‘siri bo‘yicha xorijiy davlatlarda E.S.Sxovrebov, G.V.Chetvertakov, S.I.Shkanov, A.X.Alasxanov, L.L.Aksenova, Ye.P.Akri, D.G.Ptashinskiy, S.V.Batalov, L.I.Dvorkin, O.L.Dvorkin, Ye.Ivanov, P.P.Oleynik, S.P.Oleynik, M.N.Samuseva, S.B.Sborshikov, A.V.Aleksanin, T.G.Galimzyanova, M.S.Bibik, B.V.Jdanovskiy, S.A.Sinenko, I.M.Miroshnikova, M.F.Kujin, Kamila Pope, Hossain Md Anwar, Vladimir Strezov, Abhilash., Chunxia Guo, Yang Chen, T.O.Kondrotenko, A.B.Saybel, Ye.V.Kondrashyenko, A.A.Kachura, S.A.Kolodyajniy, S.N.Zolotuxin, A.A.Abrobenko, A.A.Artemov, K.V.Nikolayeva, A.A.Sagdeyeva, O.N.Grigoryeva, R.S.Fedyuk, Aleksandra Lewandowska-Czula, Daniela Szymanska, Ashok K. Rathoure, Amit Kumar, Chhotu Ram, V.N.Laskorin, O‘zbekiston olimlaridan A.A.Yuldashev, X.L.Pulatov, F.B.Igitov, U.L.Sharipova, G.B.Begjanov, M.M.Ergashev, F.T.Yuldashev, A.T.Ilyasov, J.A.Turgayev, B.B.Xasanov, N.A.Xodjayev, O.X.Ergashova, B.G‘.Igamberdiyev, X.Kuldashev, Z.M.Sattarov kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan va ma‘lum bir ijobiy natijalarga erishilgan.

Chiqindilar klassifikatsiyasi, infratuzilmasi tizimi, qurilish chiqindilarini qayta ishlash yo‘nalishlarini, texnologik jarayonlari sxemalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar A.X.Alasxanov, L.L.Aksenova, Ye.P.Akri, D.G.Ptashinskiy,

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 apreldagi PQ-4291-son qarori.

S.V.Batalov, L.I.Dvorkin, O.L.Dvorkin, Ye.Ivanov, P.P.Oleynik, S.P.Oleynik, M.N.Samuseva, S.B.Sborshikov, A.V.Aleksanin, T.G.Galimzyanova, M.S.Bibik, B.V.Jdanovskiy, S.A.Sinenko, I.M.Miroshnikova, M.F.Kujin, Kamila Pope, Hossain Md Anwar, U.L.Sharipova, G.B.Begjanov, M.M.Ergashev, F.T.Yuldashev, A.T.Ilyasov, J.A.Turgayev, B.B.Xasanov, N.A.Xodjayev, O.X.Ergashova, B.G. Igamberdiyev, X.Kuldashev, Z.M.Sattarov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida qurilish chiqindilarini hisoblash usullari, qayta ishlash usullari, texnologik jarayonlari, landshaft zaxirasini asrash, ikkilamchi resurs qurilish chiqindilaridan takroran foydalanishga asoslangan tadqiqotlar yetarlicha o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 4 sanoat chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, 10/22-2022-sonli "Geoaxborot ma'lumotlar bazasida hududlarda mavjud qurilish chiqindilarini ko'mish va utilizatsiya qilish joylariga tegishli maydonli fazoviy qatlam yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ikkilamchi resurs chiqindilarni hisoblash usullarini va boshqarish tizimini takomillashtirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Ikkilamchi resurs chiqindilarni hosil bo'lish shart-sharoitlari, tozalash va saralash texnologiyalari va texnik vositalariga oid ilmiy va texnikaviy ma'lumotlar hamda shu yo'nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy tadqiq etish;

qurilish chiqindilarini to'plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va ko'mish kabi jarayonlarning tamoyillarini yaratish;

qurilish chiqindilarini qayta ishlash jarayonlarining texnologik sxemasini ishlab chiqish;

qurilish chiqindilari poligonlari hududlarini kengaytirish bo'yicha EHM dasturi ishlab chiqish.

qurilish chiqindilarini tashish, saralash, paligonlarda joylashtirish, qayta ishlash mezanizmlarini ishlab chiqish orqali uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida qurilish chiqindilari, poligonlar, chiqindilarni fraksiyalarga ajratib tozalash texnologik ish jarayoni va uni amalga oshiradigan mexanizmlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qurilish chiqindilarining ikkilamchi resurslari beton, temir-beton, metallarni saralash va qayta ishlashni takomillashtirish, qurilish poligonlari tadqiqot predmeti sifatida olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Qurilish chiqindilari logistikasi usulidan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash sxemasini, qurilish chiqindilaridan samarali foydalanish bo'yicha indikator yaratishda normativ hujjatlaridan foydalanilgan. Shuningdek, qurilish chiqindi poligonlari yerlari hisobini yuritish, monitoring qilish, geostatistik tahlillar qilish, ob'ektlarni geofazoviy bog'lash, kartografik shartli belgilar tanlash,

masofadan zondlash, algoritmlash, interpolyatsiya, kodlash hamda axborotlarni raqamlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillarini inobatga olish orqali qurilish chiqindilarini to'plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va ko'mish kabi jarayonlarning texnologik sxemasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash yondashuvi asosida takomillashtirilgan;

qurilish chiqindilaridan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish maqsadida atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirishni to'liq inobatga olingan holda ekologik indikatorlarning 35 ta ko'rsatkichi takomillashtirilgan;

qurilish chiqindilarini saralash va qayta ishlash, chiqindilarni joylashtirish mexanizmlarni samarali rejalashtirish bilan hajmi optimallashtirishni takomillashtirish orqali poligonlardan foydalanish muddatini uzaytirish bo'yicha avtomatlashtirilgan metodik dastur ishlab chiqilgan;

chiqindilarni yig'ish, tashish, poligonda joylashtirish tartiblarini hisobga olgan holda ikkilamchi qurilish chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishni hisoblash usuli takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

eski qurilishlarni renovatsiya qilish (buzish) da atrof-muhitni muhofaza qilish va qurilish chiqindilarini poligonlarga tashish logistikasini ishlab chiqish natijasida tabiiy va ikkilamchi resurslardan hosil bo'ladigan chiqindilar ikki turga ajratilgan va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qurilish, renovatsiya, chiqindilarni boshqarishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan hamda qurilish chiqindilarini boshqarish sohasida logistikadan foydalanish takomillashtirilgan;

qurilish chiqindi poligonlari infratuzilmasi, ularni qayta ishlash, utilizatsiya qilishda atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan; qurilish chiqindilarini to'plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va ko'mish kabi jarayonlarning prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

qurilish chiqindilari poligonlari hududlarini kengaytirish EHM dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, qurilish chiqindilari poligonlari joylashgan yer uchastkalari masofadan zondlash usuli orqali monitoring qilingan va geoma'lumotlar bazasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda uning Andijon va Toshkent viloyatlari boshqarmasi materiallaridan foydalanilganligi, tadqiqotlar natijasida takomillashtirilgan uslub va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, qurilish chiqindilarini saralash va qayta ishlash, chiqindilarni joylashtirish mexanizmlarini yaratilgan yangi texnologik tizim asosida takomillashtirish, poligonlardan foydalanish muddatini uzaytirish bo'yicha

avtomatlashtirilgan metodik dastur ishlab chiqish uchun asos bo'lgan. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Ekotibbiyot" xususiy korxonasi qurilish poligonida 2021-2023-yillar mobaynida 1300 m<sup>3</sup> tuproq zaxirasi to'planib qolgan. Ushbu tuproq zaxirasidan xom g'isht mahsuloti ishlab chiqarish, sanoat korxonalari tomonidan buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilishda, yo'l qurilishida, tuman va shahar ko'chalarini obodonlashtirishda, sho'rlangan va yer ball boniteti past maydonlarning hosildorligini oshirishda foydalanish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Atrof-muhitni muhofaza qilishda ikkilamchi resurs chiqindilarni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha olingan natijalar asosida:

Atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillarini inobatga olish orqali qurilish chiqindilarini to'plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va ko'mish tizimi ishlab chiqilib "Bio eco service" MCHJ poligoniga joriy etilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 8-yanvardagi 03-03/1-03/3-177-sonli ma'lumotnomasi). Natijada eski uy-joylarni buzishda atrof-muhit muhofazasini ta'minlash va qurilish chiqindilarini Yuqori Chirchiq tumani "Bio eco service" MCHJ poligoniga tashish logistikasining boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan logistika tamoyillari ishlab chiqilgan;

Qurilish chiqindi poligonlari infratuzilmasini yaratish, iqtisodiyotda qurilish chiqindilaridan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish, atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish orqali ekologik indikatorlarning 35 ta ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, "Bio eco service" MCHJga joriy etilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 8-yanvardagi 03-03/1-03/3-177-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qurilish chiqindilaridan ikkilamchi resurs sifatida foydalanishda atrof-muhitni muhofaza qilishning ekologik indikatorlarini 10 tadan 35 taga yetkazishga erishilgan;

Eski qurilishlarni renovatsiya qilish (buzish) da atrof-muhitni muhofaza qilish va qurilish chiqindilarini poligonlarga tashish logistikasi takomillashtirilib, "Bio eco service" MCHJga joriy etilgan. (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 8-yanvardagi 03-03/1-03/3-177-sonli ma'lumotnomasi). Natijada eski bino va uy-joylarni buzishda atrof-muhit muhofazasi va qurilish chiqindilarini Yuqori Chirchiq tumani "Bio eco service" MCHJ poligoniga tashish logistikasining boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan logistika tamoyillari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi** Mazkur ishning tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan. Ilmiy-tadqiqot ishining asosiy natijalari Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy Kengashi yig'ilishlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, 1 ta monografiya, 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11

ta maqolalar, jumladan 8 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan va 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning O‘zbekiston va jahonda zaruriyati hamda dolzarbligi asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilib, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari asoslangan, ishning aprobatsiyasi va natijalarining joriy qilinishi, hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Atrof-muhitni muhofaza qilishda qurilish chiqindilari bo‘yicha olib borilgan nazariy va amaliy adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan **birinchi** bobida qurilish chiqindilarini atrof-muhitga ta‘sir doirasini va ularni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash va undan foydalanish imkoniyatlariga doir nazariy va amaliy izlanishlarning analitik tahlili keltirilgan.

Dunyo iqtisodiyot tarmoqlari tezkorlik bilan rivojlanib borishi tufayli tabiiy resurslardan keng ko‘lamda oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi kunda jahonda chiqindi turlari mingdan ziyod bo‘lishiga qaramay, asosan maishiy, sanoat, tibbiyot, elektronika, oqova suvlar chiqindilariga urg‘u berilib, qurilish chiqindilari resurslaridan foydalanishning ilmiy asoslari yetarlicha o‘rganilmagan. Jamiyat inson faoliyati ta‘sirida hosil bo‘layotgan chiqindilarni to‘plash, tashish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish, ularni yo‘q qilish kabi muammolarga duch kelmoqda.

Olib borilgan izlanishlar tahliliga ko‘ra, har bir inson kundalik hayoti davomida o‘rtacha 1-1,5 kg atrofida maishiy chiqindi chiqaradi yoki dunyo bo‘ylab 11 mlrd. tonnaga yaqin chiqindi hosil bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida aholining tez o‘sishi hisobiga yiliga o‘rtacha 9-10 mln. tonna chiqindi hosil bo‘ladi yoki 2030-yilga borib 16 mln. tonna qattiq maishiy chiqindi hosil bo‘lishi bashorat qilinmoqda.

Hozirgi kunda chiqindilarni dunyo hamjamiyatida turli xil sinflarga va guruhlariga bo‘lib o‘rganiladi. Ularni quyidagicha talqin qilish mumkin:

*Ikkilamchi resurslar* –bu maishiy xo‘jalikda hosil bo‘ladigan, bevosita yoki qo‘shimcha ishlov berishdan so‘ng takror foydalanish imkoni mavjud bo‘lgan, iste‘mol va ishlab chiqarish chiqindilari hisoblanadi;

*Qattiq maishiy chiqindilar* – yuridik va jismoniy shaxslarning hayoti va faoliyati natijasida hosil bo‘lgan organik va noorganik shuningdek, ularning hududida va obodonlashtirish ob‘ektlaridagi tabiiy jarayonlar natijasida ya‘ni (oziq-ovqat va o‘simlik qoldiqlari, to‘qimachilik mahsulotlari, o‘rash-joylash (qadoqlash) materiallari, shisha, rezina, qog‘oz, plastmassa, yaroqsiz yog‘och, foydalanish xususiyatlarini yo‘qotgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, suprindi, shuningdek qattiq yoqilg‘ida ishlovchi

maishiy pechkalar va isitish bug‘ qozonlaridan foydalanish kabilar)dan hosil bo‘luvchi chiqindilar kiradi.

Qurilish chiqindilari - bino va inshootlar, shu jumladan yo‘llar va muxandislik kommunikatsiyalarini hamda ishlab chiqarish ob‘ektlarini qurish, rekonstruksiya va (yoki) montaj qilish, ta‘mirlash, obodonlashtirish hamda buzish ishlarini amalga oshirish natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar kiradi.

Renovatsiya chiqindisi - (lotincha so‘z renovatio-yangilanish) bino va inshootlarni buzish, rekonstruksiya, ta‘mirlash kabi ishlarni amalga oshirishda hosil bo‘ladigan qurilish chiqindilari.

Sanoat chiqindilari - ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan foydalanilmagan qo‘shimcha mahsulotlar qoldiqlari, xom ashyo yoki yangi hosil bo‘lgan moddalarning zarralari bo‘lishi mumkin. Sanoat chiqindilari qattiq, suyuq va gazsimon holatda ham bo‘lishi mumkin.

Chiqindilarni qayta ishlash - chiqindilarni ekologik jihatdan bexatar saqlash, tashish, yoki utilizatsiya qilish maqsadida ularning fizik, kimyoviy yoki biologik xususiyatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq texnologik operatsiyalarni amalga oshirish.

Chiqindilarni utilizatsiya qilish – chiqindilar tarkibidan ikkilamchi xom ashyo sifatida ajratib olishdan qolgan chiqindilar.

Chiqindilardan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish masalalari hanuzgacha to‘liq o‘z yechimini topgani yo‘q. Qolaversa, maishiy chiqindilar to‘g‘risida ko‘plab ilmiy izlanishlar, tahlillar olib borilgan bo‘lsada, qurilish chiqindilari masalasi e‘tibordan chetda qolmoqda. Dunyo miqyosida qurilish chiqindilarining hosil bo‘lishi yildan yilga ortib bormoqda.

### Xorijiy mamlakatlarda qurilish chiqindilarining hosil bo‘lishi

1-jadval

Mamlakatlar	Aholi soni, mln. kishi	Qurilish chiqindi qoldiqlari, mln tonna
Yevropa Ittifoqi	348,4	253
AQSH	341,9	600
Yaponiya	127,0	62
Germaniya	80,7	41
Turkiya	76,7	110-210
Rossiya	146,4	71,3
Moskva shahri	10,4	8,5
O‘zbekiston	36,0	4,0
Qirg‘iziston	7	2,3

Yevropa davlatida uylar buzilishi assotsatsiyasining(YeDA) ma‘lumotlariga qaraganda, har yili o‘rtacha 2,5 mlrd. tonna, shu jumladan Yevropada 200 mln tonna qurilish chiqindilari hosil bo‘lishi qayd etilgan. Yevropa Ittifoqining “2008/98/YeI-Chiqindilar to‘g‘risida”gi direktiva ko‘rsatmasida Yevropada buzilgan turar-joylar va qurilish chiqindilarini qayta ishlashni 70 foizga yetkazish talabi qo‘yilgan. 2019-yilda Yevropada qayta ishlash ko‘rsatkichi 45 foizni tashkil etgan bo‘lsada, hozirda Daniya,

Niderlandiya, Shvetsiya va Germaniyada qurilish chiqindilarining 90 foizdan ziyodi qayta ishlanmoqda.


Chiqindilarni tartibga solishda turli xil qonun qoidalar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa qurilish chiqindilari sohasi bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlarning tahlillariga ko'ra so'ngi yillarda qurilish chiqindilarini boshqarish borasida normativ-huquqiy zamin yaratilmoqda. Shunga qaramasdan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish chiqindilari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Tahlillarga qaraganda, Yevropa Ittifoqi, Koreya, Yaponiya davlatlarida qurilish chiqindisi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilingan. O'zbekiston qonunchiligida qurilish chiqindisi bo'yicha qonun mavjud emas, "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunda qurilish chiqindisiga bag'ishlangan alohida modda qayd etilmagan. Shu sababli Respublikamizdagi normativ-hujjatlarni tahlili olib borildi (2-jadval).

**Atrof-muhitni muhofaza qilishda qurilish chiqindilarini boshqarishdagi normativ-huquqiy me'yoriy hujjatlarning tahlili**

**2-jadval**

t/r	Normativ hujjatlar	Mavjud	Izoh
<b>Qonunchilik</b>			
1	Qurilish chiqindisi bo'yicha alohida qonun	Yo'q	
2	O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risidagi" Qonunida qurilish chiqindisiga bag'ishlangan modda	Yo'q	
3	Qurilish chiqindilari bo'yicha milliy qonunchilik bilan qamrab olish, % hisobida	50	28.01.2021 yildagi 40-sonli VMQ
4	Hukumat tomonidan qabul qilingan renovatsiya bo'yicha normativ hujjat	Ha	24.12.2024 yildagi 880-sonli VMQ
5	Qurilish chiqindilarining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy o'rganilganligi	Yetarli emas	
<b>Infrastruktura</b>			
6	Qurilish chiqindilarini boshqarish bo'yicha tizim	Ha	
7	Qurilish chiqindilarini qabul qilish poligonlari	Ha	
8	Ekologik xavfsizlik talablari bo'yicha qurilish chiqindilarini qayta ishlash korxonlari	Yetarli emas	
9	Qurilish chiqindilari logistikasi	Yo'q	
<b>Ko'rsatkich</b>			
10	To'planib qolgan qurilish chiqindilari (mln. tonna)	4,0	
11	Qurilish chiqindilarining aholi soniga nisbatan miqdori (kg)	0.1	

O'zbekiston sharoitida tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991-yilga qadar qurilish chiqindixonalari deyarli tashkil etilmagan. Hozirgi kunga kelib hukumatning atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan say harakatlari natijasida 34 ta qurilish chiqindixonalari 264 gektar maydonda tashkil etilgan.



**1-rasm. 1998-2021 yillarda qurilish chiqindilari poligonlarining tashkil etilishi**

Ikkilamchi qurilish chiqindilarini atrof-muhitga, tabiiy resurslarga ta'siri bo'yicha ularni boshqarish, logistika va qayta ishlash bo'yicha E.S.Sxovrebov, L.L.Aksenova, A.B.Saybel, Ye.V.Kondrashyenko, A.A.Kachura, S.A.Kolodyajniy, S.N.Zolotuxin, A.A.Abobenko, A.A.Artemov, K.V.Nikolayeva, A.A.Sagdeyeva, O.N.Grigoryeva, A.A.Yuldashev, X.L.Pulatov, F.B.Igitov, U.L.Sharipova, G.B.Begjanov, M.M.Ergashev, F.T.Yuldashev, A.T.Ilyasov, J.A.Turgayev, B.B.Xasanov, N.A.Xodjayev, O.X.Ergashova, B.G'Igamberdiyev, X.Kuldashev, Z.M.Sattarov va boshqa olimlar ishlarining tahlilidan ma'lumki, qurilish chiqindilarni mavjud bo'lgan holatda atrof-muhitga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ma'lum bir ijobiy natijalarga erishilgan.

Olib borilgan tahlillar asosida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari belgilangan.


Dissertatsiyaning «**Qurilish chiqindilarini boshqarishning nazariy asoslari, logistik parametrlari va mezonlari**» deb nomlangan **ikkinchi** bobida Qurilish chiqindilarini boshqarish sohasida logistikadan foydalanishning asosiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Hozirgi vaqtda logistika ilmiy yo'nalish bo'lib, uning maqsadi mahsulotlarga bo'lgan talabni maksimal darajada qondirish va ularni minimal xarajatlar bilan iste'molchiga o'z vaqtida yetkazish uchun resurslar oqimini boshqarish usullari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqishdir. Logistika tamoyillari bugungi kunda inson faoliyatining ko'plab sohalarida qo'llaniladi. Ammo, shunga qaramay, qurilish chiqindilarini boshqarish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish uchun logistika yondashuvidan foydalanish imkoniyatlari hali ham tegishli e'tiborga olinmagan.

**Logistika nazariyasi** bo'yicha manbalarni tahlil qilish ko'plab mualliflar bir xil logistika tamoyillarini aniqlagan, degan xulosaga kelishimizga sabab bo'ladi. Qurilish chiqindilarini boshqarish sohasidagi o'ziga xoslikni inobatga olgan holda, quyidagi tamoyillarni shakllantirish mumkin: mustahkamlik, samaradorlik, murakkablik,

moslashuvchanlik, konstruktivlik, ishonchlilik, yaxlitlik, ilmiy aniqlik, muqobillik (variantlik), mutaxassislik, insoniylashtirish, moslashuvchanlik va barqarorlik.

Aholi tomonidan har yili kvartiralarini joriy ta'mirlashda, uncha katta bo'lmagan mahalliy qurilish qilganda ma'lum miqdorda qurilish chiqindilari ham hosil bo'ladi. Uncha katta bo'lmagan miqdordagi qurilish chiqindilari har doim ham utilizatsiya qilinmasdan, odat bo'yicha yaqin bo'lgan o'rmon, dala, suv havzalari atrofiga tashlaydilar. Bu bilan atrof-muhitga jiddiy salbiy zarar yetkaziladi.




**2-rasm. Bino va inshootlarni buzish va o'zgartirish orqali chiqadigan qurilish chiqindilari miqdori (%).**



**3-rasm. Atrof-muhit muhofazasida qurilish chiqindilarini boshqarishning asosiy tamoyillari.**

Mamlakatda qurilish chiqindilariga bo‘lgan e‘tibor kuchaymoqda, lekin uni maqsadli boshqarish tamoyillari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun dissertatsiya mavzusini to‘liq yoritish maqsadida qurilish chiqindilarini boshqarishning asosiy tamoyillari loyihasi havola etilmoqda (3-rasm).





**4-rasm. Atrof-muhit muhofazasida qurilish chiqindilarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladigan logistika tamoyillari**

**Qurilish chiqindilarini qayta ishlashga qo‘yiladigan strategik mezonlar.** Odatda, har bir sohani rivojlantirish uchun maqsad va uning omillarini amalga oshirish vazifalari belgilab olinadi. Jumladan, chiqindilarni ham asosiy strategik tamoyillari quyidagilardan iborat:



- strategiyani amalga oshirish borasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish;
- chiqindilarni atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish va ularni amalga oshirishda barcha jarayonlar ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini ta‘minlash;
- chiqindilarni boshqarishda davlat-xususiy sheriklik va tadbirkorlik sinfini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan “yashil tarif” va “yashil subsidiya” tamoyillarini joriy etish;
- chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda chiqindilarni hosil qiluvchilardan “Ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyiliga rioya etgan holda xarajatlarni qoplashni nazarda tutuvchi, tegishli huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratish orqali atrof-muhitni ifloslanishini kamaytirish vazifalarini belgilash lozim.

Dissertatsiyaning «**Qurilish chiqindilari infratuzilmasini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish tadqiqotlari**» deb nomlangan uchinchi bobida Qurilish chiqindilari infratuzilmasini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish, poligon eksperimental tadqiqotlari natijalari berilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida sanoat qurilish sohasining tezkorlik bilan rivojlanishi shuningdek, portlament sement xom ashyosiga ehtiyoj ortib borishi tufayli tabiat resurslaridan oqilona foydalanish hamda atrof - muhitni muhofaza qilish, antropogen omillar ta'sirida hosil bo'layotgan chiqindilarni utilitatsiya qilish, zararsizlantirish, yo'q qilish, ilmiy yondoshuvlar asosida qurilish chiqindilarini ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash kabi ekologik muammolarga yechim izlash dolzarbligicha qolmoqda.



**5-rasm. "Bio eco service" MCHJ qurilish chiqindilarini ko'mish va utilitatsiya qilish hududining ma'lumotlar bazasida ko'rinishi.**



**6-rasm. "Ekotibbiyot" X/K qurilish chiqindilarini ko'mish va utilitatsiya qilish hududining ma'lumotlar bazasida ko'rinishi.**


“Bio eco service” va “Ekotibbiyot” X/Klar misolida qurilish chiqindilarini ko‘mish va utilizatsiya qilishda «Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylarining sanitariya muhofaza zonalarini» tematik qatlami atributiv ma’lumotlari boshqa qurilish poligonlarida ham ishlab chiqilishini tavsiya etiladi.

Ta’kidlash joizki, ob’yektlarda hosil bo‘lgan qurilish chiqindilarini to‘plash, saqlash, ortish, tashish, saralash, qayta ishlash, ikkilamchi resurslarni ajratib olish, qayta ishlanmaydigan chiqindilarni poligonlarga joylashtirishda texnologik jarayonlarga rioya qilishda puxta o‘ylangan samara beradigan ilmiy sxema ishlab chiqilishiga ehtiyoj sezilmoqda. Qurilish chiqindilarini boshqarish texnologik jarayon zanjiri sxemasi quyidagicha taklif etiladi.

**Qurilish chiqindilari hosil bo‘lishini solishtirma kattaligi va me’yorlarini aniqlash usuli.** Qurilish chiqindilari uchun texnologik hujjatlar, ya’ni texnologik kartalar, reglamentlar, ishchi chizmalar bo‘lgan holda qo‘llaniladi. Ushbu hujjatlar asosida, qurilish chiqindilarining turlariga asosan qurilish chiqindilari hosil bo‘lish me’yorlari quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Q_{ch} = UX_m^3 - (\Sigma QX_m^3 + Y_m^3 + sh_m^2 + P_r + T_r)$$

Bu yerda:  $UX_m^3$  – binoning umumiy hajmi va xom ashyo xarajati me’yori;  $m^3$ ;  $QX_m^3$  – bino qavatlarining balandligi va bo‘sh qavatlar hajmi;  $m^3$ ;  $Y_m^3$  – yog‘och materiallarning hajmi yoki eshik, rom, pol, v.h.k;  $m^3$ ;  $Sh_m^2$  – oynali chiqindilar;  $m^2$ ;  $P_r$  – Plastik chiqindilar; tonna;  $T_r$  – temir chiqindilari, armatura, v.h.k; tonna.



**7-rasm. Qurilish chiqindilarini yuridik va jismoniy shaxslardan olib chiqib ketish, qayta ishlash sxemasi.**

Dissertatsiyaning «Qurilish chiqindi poligonlari infratuzilmasi, qurilish chiqindilarini qayta ishlash, utilizatsiya qilishda atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirini baholash» deb nomlangan to‘rtinchi bobida Qurilish chiqindilarining

ekologik va iqtisodiy xarakteristikalariga ta'sirini eksperimental tadqiqot qilish keltirilgan.


Chiqindilarni to'plash, transport qilish, utilizatsiya qilish va yo'q qilish jarayonlari atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, chiqindilarni yoqish havo ifloslanishiga, yoki ularni to'plash yerni ifloslantirishga olib kelishi mumkin. Qurilish chiqindilarining qayta ishlanishi orqali yangi resurslar hosil qilinadi va iqtisodiy xarajatlar kamayadi. Bunday strategiyalar, shuningdek, resurslarni tejashga yordam beradi (7-rasm).

### **Qurilish chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan metod**


**3-jadval**

№	Ko'rsatkichlar	Andijon viloyati "Ekotibbiyot" X/K		Toshkent viloyati "Bio eco service" MCHJ	
		2023 y.	2024y.	2023 y.	2024 y.
1	Yillar	2023 y.	2024y.	2023 y.	2024 y.
2	Umumiy maydoni (gektar)	5	5	20,6	20,6
3	Umumiy kelib tushgan chiqindilar (tonna)	2548	1293	1043546	778500
3	Qurilish chiqindilarini qabul qilish (tonna)	980	1110	924960	282891
4	Qayta ishlash (tonna)	-	-	244000	218000
5	Chiqindidan bo'shatilgan maydon (gektar)	-	-	8	7,2
6	Iqtisodiy ko'rsatkichi (mlrd so'm)	-	-	18,3	16,3
7	Saqlab qolingan tabiiy resurs yer maydoni (2 m chuqurlikda (gektar))	-	-	20	9
8	Poligonning to'lish muddatining bashorati (yil)	2		4,6	

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati "Bio eco service" MCHJ bir yilda 244 ming tonna qurilish chiqindilarini qayta ishlash hisobiga 18,3 mlrd so'm (birja bahosida tonnasi 75000 so'm) daromad keltiriladi va 8 gektar poligon maydoni bo'shatiladi hamda 20 gektar tabiiy resurs landshafti saqlanib qoladi (3-jadval).




**8-rasm “Eko tibbiyot” XK ning umumiy va qurilish chiqindilarining tadqiqot tahlili.**




**9 -rasm “Bio eco service” MCHJ ning umumiy va qurilish chiqindilarining tadqiqot tahlili.**

Agar “Eko tibbiyot” XK qurilish chiqindilarining 23 foizini qayta ishlashga erishgan bo‘lganda, bu poligonlarni samarali ishlatish va atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta‘sirni kamaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Bunday holatda, poligonlarning foydalanish muddati 2 yilga uzaytirilishi quyidagi jarayonlarda o‘z aksini topadi (8-9-rasmlar).



**10-rasm. “Eko tibbiyot” XK ning poligondan foydalanish muddati tadqiqot tahlili.**



11 – rasm. “Bio eco service” MCHJ ning poligondan foydalanish muddati tadqiqot tahlili.

Qurilish chiqindilarini qayta ishlash orqali ko‘plab foydali materiallar (masalan, beton, metall, yog‘och va boshqalar) qayta ishlab chiqarilishi mumkin. Bunda resurslarning tejalishi, yangi materiallarni ishlab chiqarish uchun kerak bo‘ladigan energiya miqdori kamayadi va tabiiy resurslardan foydalanish zaxirasi tejaladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Bio eco service” MCHJ tomonidan amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlar asosida, qurilish chiqindilarining 23 foizini qayta ishlash orqali poligonlarning foydalanish muddati 4,6 yilga uzaytirilgan.

## XULOSA

**“Atrof-muhitni muhofaza qilishda ikkilamchi resurs chiqindilarni boshqarishning ilmiy asoslari”** mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Qurilish chiqindilari borasidagi ilmiy izlanishlarida, qurilish chiqindilarini qayta ishlash usullari, texnologik jarayonlari, landshaft zaxirasini asrash, ikkilamchi resurs qurilish chiqindilaridan takroran foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki qurilish chiqindilarni yig‘ishdan bosjlab to poligonga olib borib joylashtirishgacha tizim to‘liq ishlab chiqilmaganligi ilmiy asoslangan.

2. Qurilish chiqindi poligonlarining infratuzilmasini yaxshilash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish jarayonlarida atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan tamoyil ishlab chiqilgan. Natijada Toshkent viloyati Ekologiya, atrof-

muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi hamda Yuqori Chirchiq tumani "Bio eco service" MCHJ ning chiqindilarni boshqarish tizimi takomillashtirilgan.

3. Ilmiy tadqiqotlar natijasida, qurilish chiqindilarining qayta ishlanishi natijasida 244 ming tonna tabiiy resurslar (qum va shag'al) tejaldi, shuningdek, 20 gektar tabiiy landshaft maydoni saqlab qolindi. Poligon hududlaridan 8 gektar yer maydoni chiqindilardan bo'shatildi. Qurilish chiqindilari saralash va qayta ishlanishi orqali joylashtirish hajmi kamayishiga erishilgan.

4. Qurilish chiqindilari uchun texnologik hujjatlar, ya'ni texnologik kartalar, reglamentlar, ishchi chizmalar asosida qurilish chiqindilarining turlariga asosan qurilish chiqindilari hajmi hosil bo'lish formulasi ishlab chiqilgan.

5. Qurilish chiqindilari poligonlarining ishlash muddatini uzaytirish bo'yicha EHM dasturi ishlab chiqilgan, natijada poligonlardan foydalanish muddati 4,6 yilga uzaytirildi va chiqindilarni samarali boshqarish tizimi yaratilgan.

6. Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan texnologik sxemalar va tavsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni tejash va ekologik tahdidlarni kamaytirish uchun muhim qadam bo'ldi. Qurilish chiqindilarining boshqarilishini yaxshilash hisobiga 20 gektar tabiiy resurs yer zaxirasi tejaldi va atrof-muhit ifloslanishining oldi olingan.

7. Qurilish chiqindi poligonlari infratuzilmasini yaratish, iqtisodiyotda qurilish chiqindilaridan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish, atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, "Nol chiqindi" tamoyili asosida ikkilamchi qurilish chiqindilari uchun ekologik indikatorlari ko'rsatkichlari 10 tadan 35 taga yetkazilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.18/30.11.2022.Т.153.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНОМ  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И  
ПРИРОДООХРАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**  

---

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ОКРУЖАЮЩЕЙ  
СРЕДЫ И ПРИРОДООХРАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ШАКИРОВ НОМАНЖОН**

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ ВТОРИЧНЫХ  
РЕСУРСОВ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ**

**11.00.05 – Охрана окружающей среды и рациональное использование природных  
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2023.4.PhD/Gr296.

Диссертационная работа выполнена в Научно-исследовательском институте окружающей среды и природоохранных технологий.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице ([www.ecoiln.uz](http://www.ecoiln.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель :**

**Аминов Хамза Хусанович**

Доктор технических наук по философии (PhD), профессор

**Официальные оппоненты :**

**Турабоев Акмал Нормоминович**

Доктор биологических наук, профессор

**Ханкелов Тавбай Каршиевич**

Доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**


**Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 18 » 07 2025 года в 15<sup>00</sup> часов на заседании Ученого совета №18/30.11.2022.Т.153.01 Научно-исследовательского института Окружающей среды и природоохранных технологий при Центрально-Азиатском Университете изучения окружающей среды и изменения климата (Green University). (Адрес: Центрально-Азиатский Университет изучения окружающей среды и изменения климата (Green University), телефон (+99871)-237-22-67, факс: 237-54-79, e-mail: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института Окружающей среды и природоохранных технологий (Адрес: Центрально-Азиатский Университет изучения окружающей среды и изменения климата (Green University). Тел.: (71) 277-69-83 e-mail.: [ecoilm@umail.uz](mailto:ecoilm@umail.uz)).

Автореферат диссертации разослан «02» 07 2025 года.

(Протокола рассылки № \_\_\_ от «02» 07 2025 года)



**Пулатов Б.А.**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

**Самиев Л.Н.**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

**Муродов Ш.О.**

Председатель Научного семинара Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ ( Аннотация диссертации доктора философии ( PhD ) )**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире с экологической точки зрения причины образование строительных отходов и использование ресурсосберегающих технологий и оборудования, при их транспортировке и переработке занимает одно из ведущих мест. «Во мировом масштабе образуется 2,5 млрд тонн строительных отходов, в том числе 200 млн тонн в Европе, что оказывает негативное воздействие на окружающую среду и требует большего внимания к экологическим проблемам». В связи с этим при разработке технологий переработки и утилизации строительных отходов важное значение имеет использование эффективных с научной и экологической точки зрения технологий .

В мире ведутся научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по созданию новых научно-технических решений в области автоматизации и модульности геоинформационных баз данных для целей управления земельными участками, отведенными под полигоны строительных отходов, с использованием программного обеспечения. В связи с этим актуальным является установление контроля за использованием полигонов, ведение учета полигонов посредством геобазы данных, формирование информационной системы о них, автоматизация размещения полигонов.

В связи с этим уделяется внимание разработке усовершенствованных и комплексных научно-технических решений по оптимальному размещению полигонов на основе формирования и геовизуализации тематических пластов полигона в базе геоданных, применению геоинформационной системы с применением современных методов выбора земель для размещения полигона.

В нашей республике реализуются комплексные меры по дальнейшему совершенствованию системы реализации процессов, связанных со строительными отходами, созданию принципов сбора, хранения, транспортировки, сортировки, размещения, переработки и захоронения строительных отходов, автоматизации системы проектирования и использования полигонов, что позволяет добиться определенных результатов.

В постановлении «Об утверждении Стратегии по обращению с твердыми бытовыми отходами в Республике Узбекистане на период 2019-2028 годов» обозначены важные задачи<sup>4</sup>, среди которых «...развитие инфраструктуры санитарной очистки, направленной на обеспечение полного охвата населения услугами по сбору и вывозу твердых бытовых отходов, создание эффективной и современной системы переработки твердых бытовых отходов, сокращение объемов твердых бытовых отходов, направляемых для захоронения на полигоны, создание современных полигонов твердых бытовых отходов, соответствующих требованиям санитарных и экологических норм, а также принятие мер по закрытию и рекультивации действующих полигонов..»<sup>5</sup>. При реализации этих

---

<sup>4</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан от 17 апреля 2019 года №ПП-4291.

<sup>5</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»

задач большое значение имеет дальнейшее совершенствование системы реализации процессов, связанных со строительными отходами, создание принципов сбора, хранения, транспортировки, сортировки, размещения, переработки и захоронения строительных отходов, реализация комплексных мер по автоматизации проектирования и использования полигонов.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 17 апреля 2019 года №ПП -4291 «Об утверждении Стратегии по обращению с твердыми бытовыми отходами в Республике Узбекистане<sup>6</sup> на период 2019-2028 годов», в постановлениях Кабинета Министров от 6 февраля 2019 года №95 «Об утверждении нормативно-правовых актов в области обращения с отходами» и от 2 октября 2018 года №787 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности работ в области обращения с бытовыми отходами», Указе Президента Республики Узбекистан от 4 января 2024 года № ПФ-5 «О мерах по совершенствованию системы управления отходами и снижению их негативного воздействия на экологическую ситуацию» и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

